



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025- yil "18" aprel

QAROR 3 -son

Toshkent sh.

Statistika kuzatuvlari shakllariga indekslar biriktirish reglamentini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, rasmiy statistika sohasidagi uslubiy hujjatlarni ilg'or xorijiy statistika amaliyotini inobatga olgan holda yanada takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. Statistika kuzatuvlari shakllariga indekslar biriktirish reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 19- avgustdagi "Davlat statistika kuzatuvlari shakllariga indekslar biriktirish bo'yicha reglamentni tasdiqlash haqida" 26-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Hamrayev